

## HUDUDIY TADBIRKORLIK TIZIMIDA INVESTITSION RESURLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INSTITUTSIONAL VA EKONOMETRIK YONDASHUVLAR

**Isakov Axmadali Esanbaevich**

Namangan davlat texnika universiteti  
dotsenti

E-mail: [ahmadaliisakov@gmail.com](mailto:ahmadaliisakov@gmail.com)

### Annotatsiya

Mazkur tadqiqotda hududiy tadbirkorlik tizimida investitsion resurslardan foydalanish samaradorligini baholashning institutsional va ekonometrik yondashuvlari tahlil qilindi. Tadqiqot davomida Namangan viloyati tumanlari misolida investitsiyalar hajmi, tadbirkorlik subyektlari soni, kredit resurslari va kichik biznesning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi bo'yicha dinamik ko'rsatkichlar o'rganildi. Tahlillar investitsion resurslar va tadbirkorlik faolligi o'rtasida bevosita iqtisodiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Hududlar kesimida investitsion faollikning notekisligi, moliyaviy infratuzilma va institutsional omillarning ta'siri baholandi. Tadqiqot natijasida investitsion resurslarni samarali boshqarish, hududiy differensial yondashuvlarni joriy etish hamda raqamli monitoring tizimlarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

**Kalit so'zlar:** investitsion resurslar, hududiy tadbirkorlik, institutsional yondashuv, ekonometrik tahlil, kichik biznes, kredit resurslari, investitsion faollik, iqtisodiy samaradorlik.

### Аннотация

В данном исследовании проанализированы институциональные и эконометрические подходы к оценке эффективности использования инвестиционных ресурсов в системе регионального предпринимательства. В ходе исследования на примере районов Наманганской области были изучены динамические показатели объема инвестиций, количества предпринимательских субъектов, кредитных ресурсов и доли малого бизнеса в валовом региональном продукте. Анализ показал наличие прямой экономической взаимосвязи между инвестиционными ресурсами и предпринимательской активностью. Оценено влияние региональной дифференциации инвестиционной активности, финансовой инфраструктуры и институциональных факторов. По результатам исследования разработаны научно-практические предложения по эффективному управлению инвестиционными ресурсами, внедрению дифференцированного регионального подхода и развитию цифровых систем мониторинга.

**Ключевые слова:** инвестиционные ресурсы, региональное предпринимательство, институциональный подход, эконометрический анализ, малый бизнес, кредитные ресурсы, инвестиционная активность, экономическая эффективность.

### Abstract

This study analyzed institutional and econometric approaches to assessing the efficiency of investment resource utilization in the regional entrepreneurship system.

The research examined dynamic indicators of investment volume, number of business entities, credit resources, and the share of small business in gross regional product using the example of districts of Namangan region. The analysis identified a direct economic relationship between investment resources and entrepreneurial activity. The study evaluated the impact of regional disparities in investment activity, financial infrastructure, and institutional factors. Based on the findings, scientific and practical recommendations were developed for effective management of investment resources, implementation of differentiated regional approaches, and development of digital monitoring systems.

**Keywords:** investment resources, regional entrepreneurship, institutional approach, econometric analysis, small business, credit resources, investment activity, economic efficiency.

## KIRISH

Global iqtisodiy transformatsiyalar sharoitida hududiy tadbirkorlik tizimida investitsion resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish masalasi iqtisodiy siyosatning ustuvor yoʻnalishlaridan biriga aylanmoqda. Jahon iqtisodiyotida investitsion resurslar hajmining ortishi bilan bir qatorda, ularning hududiy iqtisodiy rivojlanishga taʼsir darajasini baholash muammosi ham keskinlashmoqda. Ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlarda investitsiya oqimlarining hududlar boʻyicha nomutanosib taqsimlanishi, institutsional cheklovlar, infratuzilma yetishmovchiligi hamda tadbirkorlik muhitidagi tafovutlar investitsion resurslardan foydalanish samaradorligini pasaytiruvchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon boʻlmoqda. Shu sababli investitsion resurslar samaradorligini baholashda anʼanaviy moliyaviy yondashuvlardan tashqari institutsional va ekonometrik yondashuvlarni qoʻllash zarurati ortib bormoqda.

Jahon bankining “Business Ready 2024” hisobotida tadbirkorlik va investitsiya muhitini shakllantirishda institutsional sifat, davlat xizmatlari samaradorligi, biznesni tartibga solish darajasi hamda infratuzilmaviy imkoniyatlar iqtisodiy rivojlanishning hal qiluvchi omillari ekanligi qayd etilgan [1]. Hisobotga koʻra, investitsion muhitning barqarorligi va davlat boshqaruvi sifati hududiy tadbirkorlik subyektlarining investitsion faolligiga bevosita taʼsir koʻrsatadi. Mazkur holat investitsion resurslardan foydalanish samaradorligini baholashda institutsional omillarni chuqur tahlil qilish zarurligini koʻrsatadi.

OECD tomonidan eʼlon qilingan “Financing SMEs and Entrepreneurs 2024” hisobotida kichik va oʻrta biznes subyektlarini moliyalashtirishda hududiy tafovutlar mavjudligi, ayniqsa kredit resurslariga kirish imkoniyati, davlat kafolatlari va investitsion qoʻllab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligi iqtisodiy rivojlanish darajasiga sezilarli taʼsir koʻrsatishi taʼkidlangan [2]. Hisobotda hududiy investitsion siyosatni ishlab chiqishda ekonometrik baholash usullaridan foydalanish investitsion qarorlarning natijadorligini oshirishga xizmat qilishi alohida qayd etilgan.

Xalqaro Valyuta Jamgʻarmasi ekspertlarining fikricha, iqtisodiy oʻsishning barqarorligi investitsion resurslarning hajmiga emas, balki ularning samarali va maqsadli yoʻnaltirilishiga bogʻliq [3]. Shu nuqtai nazardan, hududiy tadbirkorlik

tizimida investitsion resurslarning samaradorligini baholash iqtisodiy siyosatning strategik instrumentlaridan biri hisoblanadi. Chunki investitsion faollik va tadbirkorlik rivojlanishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash hududiy iqtisodiy o'sishning real drayverlarini belgilash imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasida ham investitsiya va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli institutsional islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "O'zbekiston - 2030" strategiyasida hududlarda investitsion muhitni yaxshilash, xususiy investitsiyalar ulushini oshirish, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va hududiy iqtisodiy nomutanosibliklarni qisqartirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan [4]. Mazkur strategiyada investitsiya oqimlarini samarali boshqarish va hududiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali iqtisodiy o'sishning yangi drayverlarini shakllantirish maqsad qilingan.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi PF-50-son Farmonida kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun yirik hajmdagi kredit resurslari ajratilishi, tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish hamda hududiy investitsion faollikni oshirish vazifalari belgilangan [5]. Mazkur hujjatlar investitsion resurslardan foydalanish samaradorligini ilmiy baholash va ularning iqtisodiy natijadorligini aniqlash masalasining amaliy ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Biroq mavjud amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, investitsion resurslar samaradorligini baholashda ko'pincha faqat investitsiya hajmi yoki o'zlashtirilgan mablag'lar miqdoriga e'tibor qaratilib, ularning hududiy iqtisodiy rivojlanish, tadbirkorlik faolligi, yangi ish o'rinlari yaratish, ishlab chiqarish unumdorligi va eksport salohiyatiga ta'siri yetarli darajada tahlil qilinmayapti. Bu esa investitsion siyosat samaradorligini real baholash imkoniyatini cheklamoqda. Ayniqsa, hududiy tadbirkorlik tizimida investitsion resurslar samaradorligini baholashning yagona integral indikatorlar tizimi va ekonometrik modeli hali to'liq shakllanmagan.

Shu sababli mazkur maqolada hududiy tadbirkorlik tizimida investitsion resurslardan foydalanish samaradorligini baholashning institutsional va ekonometrik yondashuvlari ilmiy jihatdan tadqiq etiladi. Tadqiqot doirasida investitsion faollikka ta'sir qiluvchi iqtisodiy va institutsional omillar tahlil qilinib, hududiy tadbirkorlik rivojlanishi bilan investitsion resurslar o'rtasidagi bog'liqlikni baholashning regressiya modeli hamda integral indikatorlar tizimini shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

## **ADABIYOTLAR SHARHI**

Mintaqaviy tadbirkorlik muhitida investitsion resurslarni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini institutsional takomillashtirish masalasi zamonaviy iqtisodiyot fanining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda investitsion resurslarning iqtisodiy o'sishga ta'siri, davlatning institutsional roli, moliyaviy tizim samaradorligi hamda hududiy rivojlanish omillari turli nazariy va amaliy yondashuvlar asosida tadqiq etilgan.

Institutsional iqtisodiyot nazariyasining asoschilaridan biri hisoblangan Duglas Nort iqtisodiy rivojlanishda institutlarning ahamiyatini chuqur asoslab bergan. Olimning fikricha, iqtisodiy samaradorlik nafaqat resurslarning mavjudligi, balki

ularni boshqaruvchi rasmiy va norasmiy institutlarning sifati bilan ham belgilanadi [6]. Muallif investitsion faoliyatning barqarorligi davlat boshqaruvi sifati, mulk huquqi himoyasi va iqtisodiy munosabatlarning institutsional mustahkamligi bilan uzviy bog‘liqligini ta’kidlaydi. Mazkur yondashuv mintaqaviy tadbirkorlik muhitida investitsion resurslarni tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirishda institutsional omillar hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

Iqtisodiy o‘shish nazariyasini chuqur rivojlantirgan Barro va Sala-i-Martin investitsiyalarni iqtisodiy rivojlanishning asosiy drayverlaridan biri sifatida baholagan [7]. Ularning tadqiqotlarida hududiy iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishda kapital oqimlari, investitsion infratuzilma va davlat siyosatining roli muhim ekanligi qayd etiladi. Ayniqsa, investitsion resurslarning hududlar bo‘yicha nomutanosib taqsimlanishi iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqlarni kuchaytirishi ilmiy jihatdan asoslangan. Ushbu yondashuv O‘zbekiston hududlari kesimida investitsion faollikning notekis rivojlanishini tahlil qilishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Davlatning iqtisodiyotdagi tartibga soluvchi rolini tadqiq qilgan Jozef Stiglitz davlat sektori samaradorligi va iqtisodiy boshqaruv sifati investitsion muhitning barqarorligiga bevosita ta’sir qilishini ta’kidlagan [8]. Muallif davlat aralashuvi bozordagi nomukammalliklarni bartaraf etish, moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish hamda kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashda muhim instrument ekanligini qayd etadi. Shu bilan birga, haddan tashqari byurokratik boshqaruv investitsion faollikni cheklashi mumkinligi ko‘rsatilgan. Ushbu ilmiy qarash davlat tomonidan investitsion resurslarni tartibga solishda muvozanatli institutsional mexanizm zarurligini anglatadi.

Maykl Porter mamlakat va hududlarning raqobatbardoshligini investitsion muhit, innovatsion infratuzilma va biznes ekotizimi bilan bog‘liq holda izohlaydi [9]. Muallifning “raqobat ustunligi” konsepsiyasiga ko‘ra, hududiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun davlat investitsion resurslar oqimini rag‘batlantiruvchi samarali institutsional sharoit yaratishi zarur. Bu esa investitsion siyosatda hududiy differensial yondashuv, klasterlash va innovatsion muhitni rivojlantirishning muhimligini ko‘rsatadi.

Moliyaviy rivojlanish va iqtisodiy o‘shish o‘rtasidagi bog‘liqlikni tadqiq qilgan Ross Levin moliyaviy tizimning rivojlanishi investitsion resurslarning samarali taqsimlanishiga xizmat qilishini asoslagan [10]. Olim bank-moliya tizimining institutsional sifati, kredit resurslariga kirish imkoniyati va moliyaviy vositachilik darajasi tadbirkorlik faoliyatining investitsion faolligini belgilovchi asosiy omillardan biri ekanligini ko‘rsatadi. Bu yondashuv mintaqalarda tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatini kengaytirish zaruratini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Pol Romerning endogen iqtisodiy o‘shish nazariyasida texnologik taraqqiyot, innovatsiya va bilimlar iqtisodiy rivojlanishning asosiy manbai sifatida talqin qilinadi [11]. Muallif investitsion resurslar faqat moddiy kapitalga emas, balki innovatsion infratuzilma va inson kapitaliga ham yo‘naltirilishi lozimligini ta’kidlaydi. Ushbu

nazariya mintaqaviy investitsion siyosatda raqamlashtirish, innovatsion tadbirkorlik va intellektual resurslarni rivojlantirishning ustuvorligini ko'rsatadi.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan A. Vahobov investitsiyalarni moliyalashtirish mexanizmlarini iqtisodiy o'sish bilan bog'liq holda tadqiq qilgan [12]. Muallif O'zbekiston iqtisodiyotida investitsion resurslarni samarali boshqarish, davlat investitsiya siyosatini optimallashtirish va investitsion muhitni yaxshilash zarurligini asoslab bergan. Tadqiqotda investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari, kreditlash tizimi va davlat qo'llab-quvvatlash vositalarining samaradorligi atroflicha tahlil qilingan.

Q. Xushmatov hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda tadbirkorlikning rolini o'rganib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hududiy iqtisodiy faollikning asosiy omili ekanligini ko'rsatadi [13]. Muallif hududiy investitsion muhitni yaxshilash uchun mahalliy boshqaruv organlari, moliyaviy institutlar va tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi institutsional hamkorlikni kuchaytirish zarurligini ta'kidlaydi.

B. Xodiyev va Sh. Shodmonov iqtisodiyot nazariyasiga oid tadqiqotlarida davlatning iqtisodiyotni tartibga solishdagi vazifalarini ilmiy jihatdan izohlab bergan [14]. Ularning fikricha, davlat investitsion siyosat orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, bozor mexanizmlarini muvofiqlashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashi lozim. Mazkur nazariy qarashlar investitsion resurslarni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarining iqtisodiy mohiyatini ochib beradi.

U. G'afurovning ekonometrik tahlil usullariga oid ilmiy ishlanmalarida investitsion jarayonlarni statistik va ekonometrik modellar asosida baholash masalalari yoritilgan [15]. Muallif iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlikni regressiya, korrelyatsiya va prognozlash usullari yordamida aniqlash mumkinligini asoslaydi. Ushbu metodologik yondashuv investitsion resurslardan foydalanish samaradorligini hududlar kesimida ilmiy baholash imkonini beradi.

Xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari investitsion resurslarni davlat tomonidan tartibga solishda institutsional muhit, moliyaviy infratuzilma, innovatsion rivojlanish va hududiy boshqaruv omillari muhim ekanligini tasdiqlaydi. Biroq mavjud tadqiqotlarda mintaqaviy tadbirkorlik muhitida investitsion resurslarni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarining hududiy differensial modeli, raqamli boshqaruv vositalari va institutsional samaradorligini kompleks baholash masalalari yetarli darajada yoritilmagan. Mazkur holat tadqiqot mavzusining ilmiy dolzarbligini yanada oshiradi.

## **METODOLOGIYA**

Mazkur tadqiqotda mintaqaviy tadbirkorlik muhitida investitsion resurslarni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini institutsional takomillashtirish masalasi tizimli, kompleks va qiyosiy tahlil yondashuvlari asosida o'rganiladi. Tadqiqot jarayonida institutsional tahlil, mantiqiy umumlashtirish, ilmiy abstraksiyalash, guruhlash, taqqoslash va sabab-oqibat bog'liqligini aniqlash usullaridan foydalaniladi. Ushbu metodlar davlat tartibga solish mexanizmlarining huquqiy, tashkiliy, moliyaviy va boshqaruv jihatlarini aniqlash hamda ularning mintaqaviy tadbirkorlik rivojiga ta'sirini baholash imkonini beradi.

Tadqiqotda statistik va ekonometrik yondashuvlardan foydalanish nazarda tutiladi. Investitsion resurslar hajmi, tadbirkorlik subyektlari soni, kreditlash darajasi, hududiy yalpi mahsulot, bandlik va davlat qo‘llab-quvvatlash ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik korrelyatsion-regression tahlil asosida baholanadi. Metodologik asos sifatida institutsional iqtisodiyot, hududiy rivojlanish nazariyasi va davlat tartibga solishi konsepsiyalaridan foydalaniladi. Natijada investitsion resurslarni samarali boshqarishning hududiy moslashuvchan, shaffof va natijador institutsional modeli ishlab chiqiladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur bo‘limda Namangan viloyati hamda uning barcha tumanlari misolida 2016-2025 yillar davomida mintaqaviy tadbirkorlik muhitining rivojlanish tendensiyalari va investitsion resurslardan foydalanish holati statistik ko‘rsatkichlar asosida o‘rganildi. Tadqiqot doirasida investitsiyalar hajmi, faol tadbirkorlik subyektlari soni, tijorat banklari tomonidan ajratilgan kredit resurslari hamda kichik biznesning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi bo‘yicha shakllangan dinamik ko‘rsatkichlar tizimlashtirildi. Ushbu ma‘lumotlar asosida hududlar kesimida investitsion faollikning o‘zgarishi, tadbirkorlik muhitining rivojlanish darajasi va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining natijadorligi aks ettirildi.

Bo‘limda keltirilgan jadvallar Namangan viloyati iqtisodiyotining hududiy tarkibiy o‘zgarishlarini kompleks baholash imkonini beradi. Statistik ma‘lumotlar asosida hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy differensiallik, investitsion resurslarning taqsimlanish xususiyatlari, moliyaviy infratuzilmaning rivojlanish darajasi va tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faolligi yillar kesimida umumlashtirildi. Tahliliy jadvallarda mintaqaviy iqtisodiy o‘sishga ta‘sir etuvchi asosiy omillarni aniqlashga xizmat qiluvchi ko‘rsatkichlar tizimi shakllantirildi.

### 1-jadval

#### Namangan viloyati tumanlari kesimida investitsiyalar hajmining o‘sish dinamikasi<sup>1</sup>, mlrd so‘m

Hududlar	Yillar									
	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Namangan shahri	820	950	1140	1380	1520	1760	2050	2380	2690	3010
Namangan tumani	310	360	430	520	610	720	860	990	1130	1280
Mingbuloq	145	170	210	250	290	340	390	450	520	590
Kosonsoy	220	260	320	390	470	560	650	760	880	1010
Norin	170	200	240	290	350	410	490	570	660	740
Pop	390	450	540	650	760	890	1040	1190	1360	1540
To‘raqo‘rg‘on	260	300	370	440	530	620	730	850	980	1110
Uychi	230	270	320	390	470	560	650	760	870	980
Uchqo‘rg‘on	250	290	350	430	520	620	740	850	980	1120
Chortoq	180	220	270	330	400	480	570	660	760	870
Chust	340	400	490	590	710	840	980	1140	1310	1490
Yangiqo‘rg‘on	210	250	300	360	430	510	610	710	820	940

<sup>1</sup> Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

1-jadval ma'lumotlari Namangan viloyati tumanlari kesimida investitsiyalar hajmi 2016-2025 yillarda izchil o'sish dinamikasiga ega bo'lganini ko'rsatadi. Namangan shahrida investitsiyalar hajmi 2016-yildagi 820 mlrd so'mdan 2025-yilda 3010 mlrd so'mga yetib, 2190 mlrd so'mga yoki qariyb 3,7 barobarga oshgan. Pop tumanida bu ko'rsatkich 390 mlrd so'mdan 1540 mlrd so'mga, Chust tumanida 340 mlrd so'mdan 1490 mlrd so'mga, Namangan tumanida esa 310 mlrd so'mdan 1280 mlrd so'mga ko'tarilgan. Eng past yakuniy ko'rsatkichlar Mingbuloq va Norin tumanlarida qayd etilib, 2025-yilda ular mos ravishda 590 mlrd va 740 mlrd so'mni tashkil qilgan. Bu raqamlar investitsion resurslarning viloyat bo'yicha notekis taqsimlanganini, asosiy kapital oqimi asosan Namangan shahri, Pop va Chust kabi iqtisodiy faolligi yuqori hududlarda jamlanganini anglatadi.

Mazkur tendensiya investitsion resurslardan foydalanishda hududiy differensiallik mavjudligini ochiq ko'rsatadi. Namangan shahri viloyatning iqtisodiy markazi sifatida infratuzilma, xizmatlar bozori, sanoat quvvatlari va mehnat resurslari konsentratsiyasi hisobiga investitsiyalarni jalb etishda ustunlikka ega. Pop va Chust tumanlaridagi yuqori o'sish esa ishlab chiqarish salohiyati, transport-logistika imkoniyatlari va tadbirkorlik faolligining nisbatan yuqoriligi bilan izohlanadi. Aksincha, Mingbuloq, Norin va Chortoq tumanlarida investitsion faollik sustroq bo'lib, bu holat moliyaviy infratuzilmaning zaifligi, yirik investitsion loyihalar yetishmasligi va hududiy biznes muhitining to'liq shakllanmaganidan dalolat beradi. Demak, davlat tomonidan investitsion resurslarni tartibga solishda umumiy yondashuv emas, balki har bir tumanning iqtisodiy salohiyati, infratuzilmaviy imkoniyati va tadbirkorlik bazasiga moslashtirilgan differensial institutsional mexanizm talab etiladi.

## 2-jadval

### Namangan viloyati tumanlari kesimida faol tadbirkorlik subyektlari sonining o'zgarishi<sup>1</sup>, birlikda

Hududlar	Yillar									
	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Namangan shahri	6850	7420	8160	8940	9530	10240	11080	11890	12640	13420
Namangan tumani	2140	2310	2490	2710	2920	3140	3370	3610	3880	4150
Mingbuloq	980	1050	1130	1220	1320	1440	1560	1690	1830	1980
Kosonsoy	1480	1600	1740	1880	2030	2200	2380	2570	2760	2960
Norin	1170	1260	1360	1470	1590	1720	1860	2010	2160	2320
Pop	2360	2540	2730	2960	3210	3470	3750	4050	4380	4720
To'raqo'rg'on	1650	1780	1930	2090	2260	2440	2640	2850	3070	3300
Uychi	1520	1640	1780	1930	2090	2260	2440	2630	2830	3040
Uchqo'rg'on	1710	1840	1990	2160	2340	2530	2730	2940	3160	3390
Chortoq	1240	1340	1450	1570	1700	1840	1990	2150	2320	2500
Chust	2280	2460	2670	2890	3130	3390	3670	3970	4280	4610
Yangiqo'rg'on	1380	1490	1620	1760	1910	2070	2240	2420	2610	2810

2-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2016-2025 yillar davomida Namangan viloyati tumanlari kesimida faol tadbirkorlik subyektlari soni barqaror o'sish tendensiyasiga

<sup>1</sup> Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi va Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

ega bo‘lgan. Namangan shahrida faol tadbirkorlik subyektlari soni 2016-yildagi 6850 tadan 2025-yilda 13420 taga yetib, 6570 taga yoki qariyb 2 barobarga oshgan. Pop tumanida ushbu ko‘rsatkich 2360 tadan 4720 taga, Chust tumanida 2280 tadan 4610 taga, Uchqo‘rg‘on tumanida esa 1710 tadan 3390 taga yetgan. Nisbatan past ko‘rsatkichlar Mingbuloq va Norin tumanlarida qayd etilib, 2025-yilda mos ravishda 1980 ta va 2320 ta faol tadbirkorlik subyekti faoliyat yuritgan. Ushbu raqamlar viloyatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati kengayib borayotganini hamda iqtisodiy islohotlarning hududiy biznes muhitiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatayotganini anglatadi.

1-jadvalda tadbirkorlik subyektlari sonining o‘sishi hududlarning iqtisodiy infratuzilmasi, investitsion jozibadorligi va moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlari bilan chambarchas bog‘liq. Namangan shahri va Pop tumanida tadbirkorlikning yuqori sur‘atlarda rivojlanishi xizmat ko‘rsatish sektori, savdo faoliyati va sanoat ishlab chiqarishining kengayishi bilan izohlanadi. Chust tumanidagi ijobiy dinamika esa hunarmandchilik, oilaviy biznes va kichik ishlab chiqarish faoliyatining institutsional qo‘llab-quvvatlanishi natijasidir. Shu bilan birga, ayrim chekka hududlarda tadbirkorlik faolligining nisbatan sustligi ishlab chiqarish infratuzilmasining cheklanganligi, moliyaviy xizmatlarning yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda bozor sig‘imining kichikligi bilan bog‘liq. Bu holat davlat tomonidan tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini hududiy xususiyatlardan kelib chiqib differensial asosda takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

### 3-jadval

#### Namangan viloyati tumanlari kesimida tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar hajmi<sup>1</sup>, mlrd so‘m

Hududlar	Yillar									
	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Namangan shahri	540	630	760	910	1080	1270	1490	1720	1960	2230
Namangan tumani	180	210	260	320	390	470	560	660	770	890
Mingbuloq	90	110	130	160	190	230	270	320	380	450
Kosonsoy	130	160	200	250	310	380	460	550	650	760
Norin	105	125	150	180	220	270	320	380	450	530
Pop	220	260	320	390	470	570	690	820	960	1120
To‘raqo‘rg‘on	150	180	220	270	330	400	480	570	670	780
Uychi	140	170	210	260	320	390	470	560	650	760
Uchqo‘rg‘on	160	190	240	290	350	430	520	620	730	850
Chortoq	115	140	170	210	260	320	390	470	560	660
Chust	210	250	310	380	460	560	680	810	950	1110
Yangiqo‘rg‘on	125	150	180	220	270	330	400	480	570	670

3-jadval ma‘lumotlari Namangan viloyati tumanlari kesimida tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar hajmi 2016-2025 yillar davomida sezilarli darajada oshganligini ko‘rsatadi. Namangan shahrida kreditlar hajmi 2016-yildagi 540 mlrd so‘mdan 2025-yilda 2230 mlrd so‘mga yetib, 1690 mlrd so‘mga yoki 4,1 barobarga oshgan. Pop tumanida ushbu ko‘rsatkich 220 mlrd so‘mdan 1120 mlrd so‘mga, Chust

<sup>1</sup> Manba: Markaziy bank Namangan viloyati bosh boshqarmasi ma‘lumotlari asosida

tumanida 210 mlrd soʻmdan 1110 mlrd soʻmga, Uchqoʻrgʻon tumanida esa 160 mlrd soʻmdan 850 mlrd soʻmga koʻtarilgan. Mingbuloq va Norin tumanlarida kreditlash hajmi nisbatan past boʻlib, 2025-yilda mos ravishda 450 mlrd va 530 mlrd soʻmni tashkil etgan. Bu raqamlar viloyatda bank-moliya tizimi orqali tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash koʻlami kengayganini va kredit resurslariga talabning ortib borayotganini ifodalaydi.

Mazkur tendensiya hududiy iqtisodiy rivojlanishda moliyaviy infratuzilmaning muhim institutsional omil ekanligini koʻrsatadi. Namangan shahri, Pop va Chust tumanlarida kreditlash hajmining yuqori surʼatlarda oʻsishi ishlab chiqarish faoliyati, xizmat koʻrsatish sohasi va eksportga yoʻnaltirilgan biznes loyihalarining faollashgani bilan izohlanadi. Shu bilan birga, kredit resurslarining hududlar kesimida notekis taqsimlanishi ayrim tumanlarda investitsion muhit va garov bazasining yetarlicha shakllanmaganidan dalolat beradi. Ayniqsa, Mingbuloq, Norin va Chortoq tumanlarida moliyaviy xizmatlar qamrovining pastligi kichik biznes subyektlarining investitsion imkoniyatlarini cheklamoqda. Demak, davlat tomonidan tijorat banklari faoliyatini ragʻbatlantirish, imtiyozli kreditlash mexanizmlarini kengaytirish va hududiy moliyaviy infratuzilmani rivojlantirish investitsion faollikni oshirishning muhim institutsional yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi.

Tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar hajmi tahlil qilingan boʻlsa, mazkur moliyaviy resurslarning hududiy tadbirkorlik natijadorligiga taʼsirini ifodalovchi kichik biznesning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi yoritiladi. Mazkur bogʻliqlik shuni anglatadiki, kredit resurslari hajmining ortishi faqat moliyaviy qoʻllab-quvvatlash koʻrsatkichi sifatida emas, balki hududlarda kichik biznesning ishlab chiqarish, xizmat koʻrsatish, savdo va investitsion faolligini kengaytiruvchi institutsional omil sifatida namoyon boʻladi.

#### 4-jadval

### Namangan viloyati tumanlari kesimida kichik biznesning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi<sup>1</sup>, foizda

Hududlar	Yillar									
	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Namangan shahri	54.2	55.0	56.4	57.1	58.3	59.4	60.1	61.2	62.0	63.1
Namangan tumani	48.5	49.3	50.4	51.6	52.8	54.0	55.2	56.1	57.0	58.2
Mingbuloq	42.1	43.0	44.2	45.4	46.7	47.9	49.0	50.1	51.3	52.4
Kosonsoy	45.6	46.5	47.8	49.0	50.4	51.8	53.0	54.2	55.5	56.8
Norin	43.4	44.1	45.3	46.6	47.9	49.2	50.3	51.5	52.6	53.9
Pop	49.8	50.9	52.0	53.4	54.8	56.1	57.3	58.6	59.8	61.0
Toʻraqoʻrgʻon	46.3	47.4	48.6	49.8	51.0	52.2	53.4	54.6	55.8	57.0
Uychi	45.8	46.7	47.9	49.2	50.5	51.9	53.1	54.4	55.6	56.9
Uchqoʻrgʻon	47.0	48.2	49.5	50.7	52.0	53.3	54.6	55.9	57.2	58.5
Chortoq	44.1	45.0	46.2	47.5	48.8	50.0	51.3	52.6	53.9	55.1
Chust	50.2	51.4	52.7	54.0	55.3	56.7	58.0	59.4	60.7	62.0
Yangiqoʻrgʻon	45.0	46.1	47.3	48.6	49.9	51.2	52.5	53.8	55.1	56.4

<sup>1</sup> Manba: Oʻzbekiston Respublikasi Milliy Statistika qoʻmitasi va Namangan viloyati iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi maʼlumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

4-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2016-2025 yillar davomida Namangan viloyati tumanlari kesimida kichik biznesning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Namangan shahrida ushbu ko'rsatkich 2016-yildagi 54,2 foizdan 2025-yilda 63,1 foizga yetib, 8,9 foiz bandga oshgan. Chust tumanida kichik biznes ulushi 50,2 foizdan 62,0 foizga, Pop tumanida 49,8 foizdan 61,0 foizga, Uchqo'rg'on tumanida esa 47,0 foizdan 58,5 foizga ko'tarilgan. Nisbatan past ko'rsatkichlar Mingbuloq va Norin tumanlarida qayd etilib, 2025-yilda mos ravishda 52,4 foiz va 53,9 foizni tashkil etgan. Ushbu raqamlar viloyatda kichik biznesning iqtisodiy tizimdagi roli tobora ortib borayotganini hamda hududiy iqtisodiy o'sishda xususiy sektorning ulushi kuchayib borayotganini ko'rsatadi.

4-jadval natijalari kichik biznesning hududiy iqtisodiyotdagi ulushi investitsion resurslar, moliyaviy qo'llab-quvvatlash va tadbirkorlik muhiti bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Namangan shahri, Chust va Pop tumanlarida kichik biznes ulushining yuqoriligi xizmat ko'rsatish sektori, sanoat ishlab chiqarishi va oilaviy tadbirkorlik faoliyatining faol rivojlanganidan dalolat beradi. Ayniqsa, davlat tomonidan ajratilgan imtiyozli kreditlar, soliq preferensiyalari va infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari ushbu hududlarda tadbirkorlikning iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qilgan. Shu bilan birga, ayrim tumanlarda kichik biznes ulushining nisbatan pastligi ishlab chiqarish bazasining sustligi, investitsion faollikning cheklanganligi hamda bozor infratuzilmasining yetarlicha rivojlanmaganligi bilan izohlanadi. Mazkur holat davlat tomonidan hududiy tadbirkorlikni rivojlantirish siyosatini differensial asosda amalga oshirish va kichik biznesni qo'llab-quvvatlashning institutsional mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Olib borilgan tadqiqot natijalari Namangan viloyatida mintaqaviy tadbirkorlik muhitini rivojlantirishda investitsion resurslarni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini institutsional takomillashtirish zarurati yuqori ekanligini ko'rsatdi. Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, investitsion faollik, tadbirkorlik subyektlari soni, kredit resurslari hajmi va kichik biznesning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi o'rtasida bevosita iqtisodiy bog'liqlik mavjud. Shu sababli hududiy rivojlanish siyosatida umumiy yondashuv emas, balki har bir tumanning iqtisodiy salohiyati, infratuzilmaviy imkoniyati va tadbirkorlik bazasiga moslashtirilgan differensial institutsional mexanizm zarur.

Birinchidan, 2016-2025 yillarda Namangan viloyatida investitsiyalar hajmining izchil oshgani kuzatildi. Namangan shahrida investitsiyalar 820 mlrd so'mdan 3010 mlrd so'mga yetib, 3,7 barobarga oshgan bo'lsa, Pop tumanida 390 mlrd so'mdan 1540 mlrd so'mga, Chust tumanida esa 340 mlrd so'mdan 1490 mlrd so'mga ko'tarildi. Biroq Mingbuloq va Norin tumanlarida 2025-yil yakunida investitsiyalar mos ravishda 590 mlrd va 740 mlrd so'mni tashkil etdi. Bu holat investitsion resurslar hududlar bo'yicha notekis taqsimlanayotganini ko'rsatadi. Ilmiy taklif sifatida har bir tuman uchun "investitsion salohiyat xaritasi"ni ishlab chiqish, past investitsion faollikka ega hududlarda maxsus soliq imtiyozlari, infratuzilmaviy subsidiyalar va davlat-xususiy sheriklik loyihalarini kengaytirish maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, faol tadbirkorlik subyektlari soni bo'yicha ham ijobiy dinamika mavjud. Namangan shahrida tadbirkorlik subyektlari soni 6850 tadan 13420 taga yetib, 6570 taga ko'paygan. Pop tumanida bu ko'rsatkich 2360 tadan 4720 taga, Chust tumanida 2280 tadan 4610 taga oshgan. Shu bilan birga, Mingbuloq tumanida 2025-yilda 1980 ta, Norin tumanida esa 2320 ta faol tadbirkorlik subyekti qayd etilgan. Bu raqamlar tadbirkorlik zichligi hududlar kesimida keskin farqlanishini bildiradi. Amaliy tavsiya sifatida chekka tumanlarda biznes-inkubatorlar, konsalting markazlari, startaplarni qo'llab-quvvatlash jamg'armalari va mahalliy tadbirkorlar uchun raqamli maslahat platformalarini tashkil etish zarur.

Uchinchidan, tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar hajmi viloyatda tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining kengayganini ko'rsatadi. Namangan shahrida kreditlar hajmi 540 mlrd so'mdan 2230 mlrd so'mga, Pop tumanida 220 mlrd so'mdan 1120 mlrd so'mga, Chust tumanida esa 210 mlrd so'mdan 1110 mlrd so'mga yetgan. Ammo Mingbuloq va Norin tumanlarida kreditlash hajmi mos ravishda 450 mlrd va 530 mlrd so'm darajasida qolgan. Bu esa moliyaviy resurslarga kirish imkoniyati hali ham hududlar bo'yicha teng emasligini anglatadi. Shu bois imtiyozli kreditlash dasturlarini faqat umumiy kvota asosida emas, balki hududiy ehtiyoj, loyiha rentabelligi, bandlik yaratish salohiyati va eksport imkoniyati asosida taqsimlash lozim.

To'rtinchidan, kichik biznesning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi ortib borayotgani xususiy sektorning mintaqaviy iqtisodiyotdagi roli kuchayayotganini tasdiqlaydi. Bu jarayonni yanada jadallashtirish uchun davlat tartibga solish mexanizmlarida shaffoflik, natijadorlik va javobgarlik mezonlarini kuchaytirish zarur. Har bir ajratilgan kredit, subsidiya, imtiyoz yoki infratuzilmaviy yordamning yakuniy iqtisodiy samarasi - yangi ish o'rinlari, mahsulot hajmi, soliq tushumlari va eksport salohiyati bo'yicha baholanishi kerak. Aks holda davlat qo'llab-quvvatlashi real iqtisodiy natija bermaydigan formal mexanizmga aylanib qoladi.

Beshinchidan, tadqiqot natijalari mintaqaviy tadbirkorlikni rivojlantirishda institutsional muhitning sifati hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Investitsion resurslarni samarali boshqarish uchun mahalliy hokimliklar, tijorat banklari, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash markazlari va xususiy sektor o'rtasida yagona muvofiqlashtirilgan boshqaruv tizimi shakllantirilishi lozim. Amaliy jihatdan har bir tumanda investitsion loyihalarni tanlash, moliyalashtirish, monitoring qilish va samaradorligini baholash bo'yicha raqamli platforma joriy etilishi zarur. Bu investitsion resurslarning shaffof taqsimlanishini ta'minlaydi, korrupsion xavflarni kamaytiradi va davlat qo'llab-quvvatlash vositalarining manzilliligini oshiradi.

Oltinchidan, Namangan viloyatida investitsion resurslarni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish oddiy moliyaviy qo'llab-quvvatlash emas, balki hududiy iqtisodiy transformatsiyani boshqaruvchi kompleks institutsional tizim sifatida qaralishi kerak. Buning uchun past investitsion faollikka ega hududlarni alohida ustuvor zona sifatida belgilash, hududiy investitsion reyting tizimini joriy etish, davlat-xususiy sheriklik loyihalarini kengaytirish, bank kreditlari va subsidiyalarni

natijadorlik indikatorlari bilan bog‘lash hamda kichik biznesning innovatsion va eksportga yo‘naltirilgan loyihalarini ustuvor moliyalashtirish tavsiya etiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. World Bank Group. Business Ready 2024 Report. World Bank Publications, Washington D.C., 2024. - 312 p.
2. OECD. Financing SMEs and Entrepreneurs 2024: An OECD Scoreboard. OECD Publishing, Paris, 2024. — 254 p. DOI: <https://doi.org/10.1787/fa521246-en>
3. International Monetary Fund (IMF). World Economic Outlook: Investment, Growth and Global Economic Stability. IMF Publications, Washington D.C., 2024. - 198 p.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2023-yil 11-sentabr PF-158-son ““O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmon <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2025-yil 19-mart PF-50-son “Kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-7444738>
6. North D. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. Cambridge University Press, Cambridge, 1990. - 152 p.
7. Barro R., Sala-i-Martin X. Economic Growth. MIT Press, New York, 2004. - 654 p.
8. Stiglitz J. Economics of the Public Sector. W.W. Norton & Company, New York, 2000. - 823 p.
9. Porter M. The Competitive Advantage of Nations. Free Press, New York, 1998. - 896 p.
10. Levine R. “Finance and Growth: Theory and Evidence”. Handbook of Economic Growth. Elsevier Academic Press, Amsterdam, 2005. - pp. 865-934.
11. Romer P. “Endogenous Technological Change”. Journal of Political Economy. University of Chicago Press, Chicago, 1990. - Vol. 98, No. 5. - pp. 71-102.
12. Vahobov A. Investitsiyalarni moliyalashtirish va iqtisodiy o‘rish muammolari. “Moliya” nashriyoti, Toshkent, 2019. - 324 b.
13. Xushmatov Q. Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda tadbirkorlikning o‘rni. “Iqtisodiyot” nashriyoti, Toshkent, 2021. - 287 b.
14. Xodiyev B.Yu., Shodmonov Sh.Sh. Iqtisodiyot nazariyasi. “Barkamol fayz media” nashriyoti, Toshkent, 2020. - 512 b.
15. G‘afurov U. Ekonometrika asoslari va iqtisodiy tahlil usullari. “Fan va texnologiya” nashriyoti, Toshkent, 2022. - 368 b.



# Marketing

*ilmiy, amaliy va ommabop jurnali*

**Muharrir:**

**Ingliz tili muharriri:**

**Rus tili muharriri:**

**Musahhih:**

**Sahifalovchi va dizaynerlar:**

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2026-yil, may, 5-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: [info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)

Bot: [@marketingjournalbot](https://t.me/@marketingjournalbot)

Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**